



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## GREM GRINNING DINIY QARASHLARINI KUCH VA SHON-SHUHRAT ROMANIDA AKS ETTIRILISHI

**Boltabayeva Ma'rifat Bahromjon qizi,**  
*Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183414>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qahramonlarning dinga bo'lga qarashlari, hayotga bo'lgan muhabbati, ishonchi va his tuyg'ulari haqida so'z ketgan. Insonlarning bir biriga bo'lgan ishonchini yoq bo'lib borishi haqida. Ishonchni suiiste'mol qilganligi natijasida ko'plab muammolarning kelib chiqqanligi haqida o'qishimiz mumki.

**Kalit so'zlar:** *Tabasko, Massa, antiklerikal, leytenant, hukumat ta'siriga, mardonavor, taqvodor, buklamalar.*

**Аннотация:** В статье рассказывается о взглядах персонажей на религию, их любви к жизни, вере и чувствах. О подрыве доверия людей друг к другу. Мы можем прочитать о многих проблемах, возникших в результате злоупотребления доверием.

**Ключевые слова:** *Табаско, Масса, антиклерикальный, лейтенант, влияние правительства, мужественный, набожный, складки.*

**Abstract:** *The article tell about the characters' views on religion, their love of life, faith and feelings. About the undermining of people's trust in each other. We can read about many problems that arose as a result of abuse of trust.*

**Key words:** *Tabasco, Massa, anticlerical, lieutenant, government influence, courageous, pious, folds.*

Kuch va shon-shuhrat romani 1940-yilda Britaniyalik yozuvchi Grem Grin tomonidan yozilgan bo'lib, dastlab AQSh da "Labirint yo'llari" nomi bilan nashr etilgan, keyinchalik "Kuch va shon-shuhrat" nomi bilan nashr etilgan. Roman diniy qarashlarga asoslangan holda yozilgan, bu bevosita Grinning 1930-yillarda Meksika hukumati katolik cherkovini bostirishga urinayotgan paytda Tabasko shtatida yashovchi dindan qaytgan katolik "viski ruhoniysi" (bu atama Grin tomonidan kiritilgan) haqida hikoya qiladi<sup>[1]</sup>. Kuch va shon-shuhrat romani Britaniyada dastlab tashkil topgan adabiy "Hawthornden" mukofotiga sozovor bo'ldi.

Viloyat poytaxtida zo'rg'a hayot uchun kurashib kelayotgan oddiy xalq romanning paydo bo'lishiga o'z xissasini qoshdi<sup>[2]</sup>. Katolik cherkovining ta'qibi antiklerikal gubernator Kando Tomas Tabasko hukumatida juda qattiq ruhoniylarni

<sup>1</sup> "All Time 100 Novels". Time. 2005.

<sup>2</sup> "Mexico: Palm Down". Time. 10 December 1934. Archived from [the original](#) on 30 September 2007. Retrieved 25 May 2010.



## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

nazorat qildi va bu shtatdagi har bir cherkovning yopilishi bilan yakunlandi.<sup>[3]</sup> U hattoki ruhoniylarni turmush qurishga majburlagan. Grin o'zining tashrifi haqidagi umumiy dushmanlik bayonida u shunday deb yozgan: "Menimcha, bu men meksikaliklardan nafratlana boshlagan kun edi" <sup>[4]</sup> deb tasvirlangan. Grin Kuch va shon-shuhrat romanida o'zing ko'rgan va kechirgan voqealarni asoslangan holda yozgan va bu uni "shunchalik disseptik, shu qadar sevgisiz, shu qadar vahshiy va ko'r" insonlarni borligidan nafratlanib roman yuzaga kelgan<sup>[5]</sup>.

Romanda qochoq ruhoniylar yillar o'tib, ilgari uning cherkovi bo'lgan kichik qishloqqa qaytib keladi, u yerda boshpanasiz qochoq Mariya Lores va uning noqonuniy qizi Brigittaga duch keladi va ilk bor ruhoniydin Mariya qizini choqintirib berishi iltimos qiladi. Bundan habar topgan oddiy chorvador xalq uni samimiy qarshi oladi. Ruhoniylar qadar chekkalangan odamlarga xizmat qilishga harakat qiladi. Bunda u juda ko'p muammolarga duch keladi, eng muhimi, Tabaskoda ham "Massa" qurbonligini nishonlash ta'qiqlangan, shunga qaramay ruhoniylar undan foydalanishda davom etadi. Sharof va spirtli ichimliklar qattiq sotilishi taqiqlangan bo'lsada uni topish unchalik qiyin ish bo'lmaydi<sup>[6]</sup>.

Padre Xose ruhoniylarni tanqid qiluvchi va ular yoq qilish uchun bor kuchini sariflovchi oddiy politsiya leytenanti bo'lib u ham aslida hukumat ta'siriga uchragan ruhoniylarni tashlab zobitlikka o'tgan, Mariya Loresni yoqtirib qolgan, ko'rinishidan va bajarayotgan ishlaridan yaxshiy odamdek ko'rinsada<sup>[7]</sup>, roman oxirida uning dinga bo'lgan ishonchi va e'tiqodini ko'rishimiz mumkin. Oldiniga u ruhoniylar bo'lganini romandagi bir necha jarayonlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan: qochoq ruhoniylar o'ziga yaqin qishloqqa qochib ketadi, u yerdan panohtop olmagan uchun quvg'inlikda yana Tabaskoga qaytadi, bundan habar topgan zobit uni asir etish haqida buyruq beradi va barcha zobitlar tulporlariga minib uni qidirib Mariyaning kichik kulbasiga tashrif buyurishadi bu vaqtda Mariya endigina Janob Tenchga hizmat ko'rsatib bo'lib, ruhoniylar iltifot ko'rsata boshlagan edi, ruhoniylar juda charchagan hattoki gapirishga ham kuchi qolmagam edi, uni himoya qilish maqsadida orqa eshikdan chiqarib qizi Brigittani yonidagi o'ridiqqa o'tqazdi, ruhoniylar charchaganidan hech narsani his qilmasdi. Zobitlar tashrif buyurishadi va ayoldan vino bormi deb

<sup>3</sup> ["Mexico Acts to Legitimize Shunned Catholic Church"](#). Los Angeles Times. 2 November 1991. Retrieved 9 May 2020.

<sup>4</sup> Graham Greene, *The Lawless Roads*, page 44

<sup>5</sup> Riding, Alan (2 December 2001). ["Greenland Revisited"](#). New York Times. Retrieved 5 January 2014.

<sup>6</sup> Schweizer, Bernard (2001). [Radicals on the Road: The Politics of English Travel Writing in the 1930s](#). University Press of Virginia. pp. 77, 123.

<sup>7</sup> Heyman, Stephen (4 December 2011). ["Bookshelf"](#). New York Times. Retrieved 5 January 2014.



## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

soradi zobitlardan biri, Mariya ularni chalg'itish va ruhoniya yordam berish maqsadida ulardagi bor maylarni tavsiya qildi. Zobitlar ichib uyin kulgu qilishdi, Mariyadan ularga raqs tushib berishini so'rashdi va u oyoqlarini ko'rsatib stol ustida raqsga tusha boshladi, shu payt Padre Xose kelib qoldi, ko'zlari qonga tolib Mariya tomon yura boshladi va bu axloqsizlik va tarbiyasizlikdan nafratlandi, u boshqa zobitlar kabi o'zini tutmasdi insonlar yoki qobiliyatsiz boshlig'ining oldida razil, o'ta qattiq qol, siyosat va davlat uchun kurashgan leytenantdek tutardi.

Janob Tench ushbu romanda dastlab qoralanib ko'rsatilgan sababi u banklardan birini o'margan, politsiyadan qochib yurgan inson<sup>[8]</sup>. Ammo keyinchalik ruhoniya katta yordam beradi leytenantga asirga tushmasligi uchun jon jaxti bilan kurashadi. U yaxshi mergan bo'lganligi sababli askarlar bilan yaxshi otishmalar olib boradi, otishmada yaralanganligi sababli so'ngi nafasida o'zining gunohlari uchun avf soramoqchi bo'lgan, bu haqda doim uni aldab kelgan Mestizo Kapitan Fellow ning uyiga kelib bu haqda aytadi, ruhoniya oldiniga ishonmaydi ammo u cho'ntagidan bir parcha yozilgan qog'oz olib uni ruhoniya beradi, uni o'qigan ruhoniya tezda Janob Tench yotgan kulba tomon shoshadi va bu yerda jon talvasasida yotgan Tenchni ko'radi<sup>[9]</sup>, unga yordam berishga urinadi ammo Tench bu tuzoqligi uni kelishini so'ramaganligini unga aytadi va tezda bu yerni tark etishi aytib joni uziladi, shu payt Tench aytaganideb bu tuzoq bo'lib chiqadi, chunki leytenant keladi va uni asirlikka oladi. Tench umrining so'ngida o'zini mardonavor o'limi bilan asarga yanada ko'rk va axloqiy jihatdan ma'muna bola oladi.

Kuch va shon-shuhrat romani o'z navbatida, ruhoniya o'zining noloyiqligini chuqur his qilishiga qaramay, u juda ham qorqoq hayot uchun dastlab kurashishga harakat qiladi ammo keyinchalik hayotdan to'ygan muammolardan charchagan o'z erkinligini ham o'ylamaydigon faqat xalq uchun jonini fido qiladigon bir inson kabi ko'rishimiz mumkin, misol uchun qashshoqlikdan azob chekayotgan qishloq xo'jaligi xodimlarining diniy ehtiyojlarini qondirish uchun qochib ketadi, bunga misol qilib qishloq oqsoqolini leytenant asirlikka olganda, oqsaqol uchun o'zining jonini garovga qoyib kurashadi, lekin uddalay olmaydi, shundan so'ng qishloq aholisini qasoskor leytenantning balosidan qutqarish uchun u endi tog'li chegaradan o'tib, unchalik qattiq bo'lmagan, qo'shni davlatga o'tishga majbur bo'ladi. Bu vaqt ichida u leytenant bilan ikki marta uchrashadi - bir marta o'z qishlog'ida yig'ilish paytida va keyin u mast sifatida qamalganidan keyin - lekin uni tanib bo'lmasdi, ammo yo'lini

<sup>8</sup> Details given in the Who's Who 2007 article about Denis Cannan

<sup>9</sup> Sochurek, Howard (Sept 1961), "Power and Glory of Sir Laurence", Life, issue 29



# XORIYIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

davom ettirardi. Xavfli sayohatdan so'ng o'lim arafasida uni AQShdan kelgan protestant yer egalari bo'lgan Lehr ishchilari qutqarib qolishadi, ular ruhoniyni sog'lig'iga qaytarishadi va unga mahalliy poytaxtga borish rejasini tuzishda yordam berishadi. Roman ruhoniyning o'limi bilan tugatilibgina qolmaydi.

Leytenant endi "viloyatni ruhoniylardan tozalaganiga" amin bo'lgandi, ammo oxirgi bobda poytaxtga yana bir yashirin ruhoniyni keladi. Ilgari o'z farzandlariga mahalliy avliyolarning hayoti haqida taqvodor buklamalarni o'qiyotgan deb hisoblagan sodiq katolik ayol, bosh qahramonni o'zining nasroniyni shahidlari repertuariga qo'shishga rozi bo'ldi.

Xulosa qilib aytganga osha vaqtlarda ruhoniylarga qilingan ta'qiblar juda ayuqori darajaga chiqqan, ularni quvg'inlikda kun kechirgani, insonlarga yordam berishga harakat qilishi samarasiz ishlardan biri bo'lgan, qolaversa o'zining ichki xohish va irodalaridan vos kechib savodsiz, o'zining xohish va irodalarini yoqori qo'ygan Politsiya boshlig'ining istaklari so'zsiz bajarilgan, bu esa o'sha vaqtlarda ham boshqarish tizimida ko'plab muammolar bo'lganligi haqida ma'lumot bera oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "[All Time 100 Novels](#)". Time. 2005.
2. "[Mexico: Palm Down](#)". Time. 10 December 1934. Archived from [the original](#) on 30 September 2007. Retrieved 25 May 2010.
3. "[Mexico Acts to Legitimize Shunned Catholic Church](#)". Los Angeles Times. 2 November 1991. Retrieved 9 May 2020.
4. Graham Greene, *The Lawless Roads*, page 44
5. Riding, Alan (2 December 2001). "[Greenland Revisited](#)". New York Times. Retrieved 5 January 2014.
6. Schweizer, Bernard (2001). [Radicals on the Road: The Politics of English Travel Writing in the 1930s](#). University Press of Virginia. pp. 77, 123
7. Heyman, Stephen (4 December 2011). "[Bookshelf](#)". New York Times. Retrieved 5 January 2014.
8. "[The Uneasy Catholicism of Graham Greene](#)". New York Times. 3 April 1983. Retrieved 5 January 2014.
9. Details given in the Who's Who 2007 article about Denis Cannan
10. Sochurek, Howard (Sept 1961), "[Power and Glory of Sir Laurence](#)", *Life*, issue 29
11. [Graham Greene](#). Paul VI, in 1953, a decade before becoming pope, had defended The Power and the Glory against other churchmen who wanted to censor it. Peter Godman. "[Graham Greene's Vatican Dossier](#)", *The Atlantic*, July/August 2001.